

Maktab formalariga qo'yilgan talablar hamda maktab yarmarkalari faoliyati



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiyl o'rta ta'llim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasini bilan ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 271-sonli qarori qabul qilingan.

Mazkur qarorga muvofiq, yagona maktab formasiga qo'yiladigan talablar belgilangan. Surxondaryo viloyatida bosqichma-bosqich maktablarda ixtiyoriy ravishda yagona maktab formasiga o'tish ishlari olib borilmoqda. E'tiborlisi, hozirga qadar viloyatdagi kam ta'minlangan oilalarning 2 099 nafar farzandlari uchun maktab formalari mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari hamda «Temir daftari», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» jamg'armalari mablag'lari hisobidan olib berildi.

Shuningdek, yangi o'quv yili boshlanishi oldidan ota-onalar uchun qulaylik yaratish, umumta'llim maktablari o'quvchilarini asosiy turdag'i o'quv qurollari, kiyim-kechak va poyabzallar bilan ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'llimi boshqarmasi tomonidan joriy yilning 10 avgustdan 10 sentabrgacha viloyatdagi buyum va oziq-ovqat (dehqon) bozorlarida, yirik savdo majmualari hamda do'konlarda maktab yarmarkalari o'tkazilmoqda.

Maktab yarmarkalarida 26 turdag'i zaruriy o'quv qurollari va jihozlari sotuvi amalga oshiriladi. Qayd yetilishicha, maktab yarmarkalarini keng assortimentdag'i o'quv qurollari, kiyim-kechak, poyabzal va zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlash maqsadida ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari va xususiy tadbirkorlar keng jalb etilmoqda.

Maktab yarmarkalari faoliyatini samarali va uyushqoqlik bilan tashkil yetish, jamoat tartibini saqlash, yong'in xavfsizligi, sanitariya va boshqa zarur xavfsizlik tadbirlarini nazorat qilish hamda muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli boshqarmalar, mahalliy hokimliklar, mutasaddi tashkilotlar mas'ul etib belgilangan.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati